

## “ELEKTRON HUKUMAT”NI KUCHAYTIRISHNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

*Muallif: Toshtemirov Muhammaddiyor Halimjon o‘g‘li*

*Ilmiy rahbar: Doniyor Xolmirzayev*

*TerDU Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat xizmati va uning rivojlanishi, davlat boshqaruvidagi ahamiyati, davlat xizmatchisining roli, elektron davlat xizmatining yangi yondashuvi va uning avzalliklari haqida yoritilgan.

**Kirish.** “Elektron hukumat to‘g‘risidagi” qonunga muvofiq “Elektron hukumat” – bu davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatni, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi, axborot xavfsizligining ta‘minlanishi hamda «bir darcha» prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilishi elektron hukumatning asosiy prinsiplari hisoblanadi. Elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari tarzida bo‘lishi mumkin. Shuningdek, elektron hukumat to‘g‘risidagi qonunga muvofiq mamalakatning butun hududida ariza beruvchilar va davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirishirilishi, davlat organlarining ma‘lumotlar bazalari yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga joylashtirilishi elektron hukumatning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Ta‘kidlash lozim, bugungi kunda davlat xizmatlari agentligiga fuqarolar tomonidan qilinadigan murojaatlar ko‘lami kundan-kunga ortib borayotgan bo‘lsada, fuqarolarning elektron hukumat bo‘yicha to‘liq bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi, ularning mamlakatimizda elektron hukumat bo‘yicha yaratilgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada, davlat xizmatlari markazlarida uzundan-uzun navbatlar ko‘payib ketmoqda. Buning eng asosiy sabablaridan biri sifatida, elektron hukumat va elektron saytlar mavjudligi haqida davlat organlari xodimlari tomonidan targ‘ibot tashviqot ishlarining sayozligi, yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligini keltirishimiz mumkin.

Fuqarolar qonuniy qilib belgilab qo‘yilgan imkoniyalardan samarali foydalanishi uchun elektron hukumat haqida batafsil ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Masalan, birgina (2013-yil 13-iyulda ishga tushirilgan) Yagona interaktiv davlat xizmatlar portal ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) dan mobil telefon orqali shahar yoki tuman markazidagi Davlat xizmatlari agentligiga murojaat etmasdan ham 606 turdan ortiq davlat xizmatlaridan foydalanish mumkin. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy ([license.gov.uz](http://license.gov.uz)) sayti mavjud bo‘lib, ushbu platforma orqali turli faoliyat yoki tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziyalar olish mumkin. Shuningdek, 2015-yil 17-martdan O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma‘lumotlar

portali(data.gov.uz)sayti ishga tushirilgan bo'lib, ushbu portalning ishga tushirilishidan ko'zlangan asosiy maqsad ma'lumotlar ochiqligini taminlashdan iborat.

**Asosiy qism.** Elektron hukumatning rivojlanishi va uning taraqqiy etishi, ushbu sohada vakolatli bo'lgan organga ko'p jihatdan taalluqli hisoblanadi. Elektron davlat xizmatlari axborot va interaktiv davlat xizmatlari tarzida bo'lishi mumkin. Fuqarolar qonuniy qilib belgilab qo'yilgan imkoniyalardan samarali foydalanishi uchun elektron hukumat haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi lozimdir. Elektron hukumat va davlat xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha jahon tajribasiga ham e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiqdir.

“Davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha eng ilg'or tajribaga ega Gruziyada amalga oshirilgan ishlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Xususan, 2004-yildan boshlab bu mamlakatda davlat boshqaruvi tuzilmasida tub islohotlar davri boshlangan. Gruziyada Adliya uyining mamlakat bo'ylab 117 ta filiali mavjud bo'lib, ularga kuniga 20mingdan ortiq mijoz tashrif buyuradi. Bu juda katta ko'rsatkich. Adliya uyining o'ziga xos jihati shundaki, fuqarolar davlat xizmatlari va qo'shimcha xizmatlardan bir joyda turib foydalanish mumkin. Shuningdek, Adliya uyida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish burchaklari, o'z-o'zini sur'atga olish kabinkalari, har bir xona va eshik oldida ko'zi ojizlar uchun zal haqidagi ma'lumotlar maxsus taxtasi o'rnatilgan bo'lib, mahalliy aholi vakillari va chet elliklar uchun alohida- alohida yo'laklar tashkil etilgan. Shuningdek, Gruziyada Davlat davlat xizmatlari hududlariga nafaqat filiallari orqali, balki sayyor tarzda chiqish orqali ham hizmat ko'rsatiladi. Sayyor xizmatga maxsus jihozlangan mikroavtobuslarda boriladi va ariza yuborish bilan birga, javobini ham shu joyning o'zida taqdim etish imkoni yaratilgan.

Shuningdek, Janubiy Koreya onlayn xizmatlarni ko'rsatishda dunyoda yetakchi o'rinlarga egadir. Hukumatning elektron hukumat strategiyalari har besh yilda joriy etiladi va ushbu sohani rivojlantirish rejalari bilan mustahkamlanadi. Ushbu davlatning elektron hukumati bo'yicha 2020-yilgi bosh rejasida asosan davlat siyosatining asoslangani, ilmiy asosga qurilgani, fuqarolar uchun ochiq va innovatsion hukumatga erishishga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, elektron hukumatni amalga oshirish strategiyasi barqaror raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga yo'naltirilgan ma'lumotlar va sun'iy intellektni kuchaytirishni ko'zda tutuvchi Ma'lumotlar va hamda sun'iy intellekt iqtisodiyotini rivojlantirish rejasida o'z aks topgan. Yangi sanoat-texnologik yo'l xaritasi kabi davlat mexanizmlari jamiyat manfaatlari hamda davlat boshqaruvini yaxshilashga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarni jadal rivojlantirishga yordam bermoqda. Ushbu tashabbuslarga qo'shimcha ravishda, Hukumat elektron ishtirok , ochiq ma'lumotlar bazasi va elektron xaridlar (KONEPS) uchun alohida platformalar taqdim etilgan. Koreya mamlakatining elektron hukumatga oid qonunchilik bazasi asosan shaxsiy ma'lumotlarni, axborotlarni, shaxslarning raqamli xavfsizligi va raqamli identifikatsiyalashga qaratilgan («Raqamli imzo to'g'risida»gi qonun, 2017-yil).

Janubiy Koreyaning elektron hukumat bo'yicha har besh yilda srategiya qabul qilish amaliyotini O'zbekistonda ham qo'llash imkoniyatimiz mavjud bo'lib, bu orqali yanada sifatli

elektron xizmatlarga ega bo'lishimiz mumkin. Singapurda Elektron hukumat bilan bog'liq huquqiy mexanizmlar 2012-yilda qabul qilingan bo'lib, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun, shuningdek, kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Singapur davlatida davlat texnologiyalari agentligi mavjud bo'lib, ushbu agentlik elektron davlat xizmatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi. Singapurda elektron xizmatlar, ochiq ma'lumotlar va davlat xaridlariga xizmat ko'rsatuvchi portallarga ega hisoblanadi va elektron ishtirok orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, mamlakat hukumati fuqarolar uchun ijtimoiy sug'urta jamg'armalarini ham rejalashtirgan, uni kuzatib borish uchun davlat xizmatlari bilan bog'liq muammolar haqida xabar berish uchun raqamli platformalarni ishga tushirilgan. Bu ham o'z navbatida mamlakatning elektron hukumat tizimining sifatli va har tomonlama mukammal shakllantirilganidan dalolat beradi. Singapurda Elektron hukumat bilan bog'liq huquqiy mexanizmlar 2012-yilda qabul qilingan bo'lib, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun, shuningdek, kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Yaponiyada hukumatni raqamlashtirishni takomillashtirish yo'lga qo'yilgan bo'lib, va uning asosiy maqsadi fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash maqsadi yo'lida yangi texnologiyalardan foydalanish va inson resurslarini rivojlantirishga asoslangan. Yaponiya elektron hukumatining huquqiy asoslari asosan shaxsiy raqamli xavfsizlikka va raqamli ma'lumotlardan keng foydalanish maqsadlariga qaratilgan.

Mamlakat raqamli asrda o'z yangi ma'muriy qiyofasini IT yo'nalishiga-investitsiyalarini kiritish orqali rivojlantirgan, xaridlar bo'yicha islohotlar va elektron hukumat rejasini quyi miqyosda tizimlardan faollashtirish orqali shakllantirib bormoqda. Shuningdek, mamlakatda fan, texnologiyalar va innovatsiyalar bo'yicha kengash mavjud bo'lib, ushbu kengash elektron hukumatning axborot almashinuvini tarqatilishiga ko'maklashish uchun hamda mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator tashabbuslari ustida ishlar olib borilmoqdaboradi.

Yaponiyada elektron hukumatning markaziy portali hamda elektron ishtirok, ochiq ma'lumotlar va davlat xaridlari qo'shimcha elektron hukumat platformalari o'z ish faoliyati orqali amalga oshiriladi. Yaponiya elektron hukumatining huquqiy asoslari asosan shaxsiy raqamli xavfsizlikka va raqamli ma'lumotlardan foydalanish maqsadlariga qaratilgan.

Biz yuqorida bir necha mamlakatlarning elektron hukumat tizimi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Tan olishimiz joizki, jahonda bizdanda kuchliroq davlatlar mavjud.

Hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar elektron hukumat tizimi samarali yo'lga qo'yish orqali, shaffof, aqlli va inkyuziv jamiyat qurish borasida yutuqlarga erishmoqda. Shunday bo'lsa-da mamlakatimizda ham jahon tajribasini qo'llash orqali elektron hukumat tizimiga ko'plab yangiliklar olib kirishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda jahon tajribasidan andoza olsak kifoya.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat xizmatlari agentliklari faoliyatini o'rganganimizda ma'sul xodimlar bitta tuman miqyosida Davlat xizmatlari markazlariga murojaat etadiganlar soni, kunlik o'rtacha 200 yoki 250 nafarni tashkil etishini, shulardan eng

ko'p murojaatlar qilinadigan xizmat turlari "bolalarni bog'chaga joylashtirish, sudlanganlik to'g'risida ma'lumotnoma olish, (ERI-kalit) elektron raqamli imzo olish kabi murojaatlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, o'tkazilgan so'rovlar davomida Davlat xizmatlari markazlariga ko'pincha, 30 yoshdan yuqori fuqarolar murojaat qilinishi" aniqlandi. Shuningdek, aksariyat davlat xizmatlaridan foydalanuvchi fuqarolarning ta'kidlashicha, markazlarda navbat olish uchun o'rnatilgan apparat qurilmalar kunning eng ish qizg'in vaqtida soatlab ishlamay qolishi holatlari kuzatiladi. Natijada, markazlarda uzundan-uzun navbatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Fuqarolar ichida keksa yoshdagilar, homilador ayollar mavjudligini hisobga olsak, uzoq vaqt navbati kelgunga qadar kutish jarayonini oldini olish borasida yanada e'tibor bilan yondashishga undaydi. Bundan tashqari, davlat xizmatlari markazlaridan kerakli ma'lumotlarni olish uchun ba'zida fuqarolar markazgacha, bir necha chaqirim masofani bosib o'tadilar. Ayrim fuqarolar birgina oddiy ma'lumotnoma olish uchun avtobus yoki taksi xizmatidan foydalanishga majbur bo'lishadi bu esa, albatta moddiy mablag' masalasiga borib taqaladi. Misol uchun, Surxondaryo viloyati Angor tumani istiqomat qiluvchi aholi Davlat xizmatlari markaziga avtomashinadansportda boorish va kelish uchun o'rtacha hisobda 20.000 so'm yo'l haqqi sarflaydilar. Bu jarayon ham albatta moddiy daromadga bog'liq. Huddi shunday, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Yangidiyor MFYda fuqarolar Davlat xizmatlari markazlariga borishi uchun ikkita yo'lovchi tashish, avtobusidan foydalanishiga to'g'ri keladi kerak. Tumanga boradigan avtobusdan foydalanish uchun, yana bitta avtomashinadan foydalanishi kerak bo'ladi. Bu fuqaroga, jismoniy charchoq va moddiy mablag' muammosini yuzaga keltirishi tabiiy. Tumanga boradigan taksi yoki avtobusgacha borish yo'l haqqi avtobus-2000 so'm, taksi esa 5000 so'mni tashkil etadi. Fuqaro tumandagi Davlat xizmatlari markaziga yetib olish uchun ham yana shuncha yo'l haqqi to'lashi kerak. Borgach esa, navbat kutish jarayoniga duch keladi. Ushbu holatlar fuqarolarga, jismoniy charchoq va moddiy mablag' muammosini yuzaga keltirishi tabiiy.

Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi xodimlari tomonidan aholi o'rtasida regulation.gov.uz sayti bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma o'tkazilgan so'rovnoma natijasida, 20% ishtirokchilar portaldagi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatdagi loyihalarni doimiy kuzatib borishini; 51% ishtirokchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini portaldagi erkin muhokama qilib, bunga o'z takliflarini bildirishlarini; 29% ishtirokchilar bu portal haqida umuman ma'lumotga ega emasligini ta'kidlagan aytgan. So'rovnoma natijasiga ko'ra, portal haqida biluvchilardan ko'ra portal haqida umuman ma'lumotga ega bo'lmaganlar ko'rsatkichining ko'pligi, elektron hukumat tizimi va elektron gadjetlardan foydalanishda fuqarolarning yetarlicha xabardor emasligidan va huquqiy savodxonlik darajasi sustligidan dalolat beradi.

Quvonarlisi shundaki, kamchiliklar bilan birga ba'zi erishilgan yutuqlarni ham ta'kidlashimiz lozim, . Hususan, davlat xizmatlarini ko'rsatishda, imkoniyati cheklanganlar uchun 25 turdagi elektron xizmatlar mavjud bo'lib, 2023 yil mobaynida 190.000 dan ortiq ariza aynan, imkoniyati cheklangan fuqarolar tomonidan berilgan. Yuqorida takidlab

o'tganimizdek bu o'z navbatida davlatimiz tomonidan fuqarolar o'rtasida inklyuzivlikni ta'minlash borasida, imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, imkoniyatlar yaratilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Koko'rish imkoniyati cheklangan fuqarolar, portaldagi ekran suhandonidan, eshitish imkoniyati cheklangan fuqarolar esa, ko'z belgisi orqali o'zlari foydalanmoqchi bo'lgan xizmatdan, oddiy va oson tarzda foydalana olishlari mumkin. Bugungi kunda, data.gov.uz ochiq ma'lumotlar portalidan foydalanuvchilarning ko'p qismini dasturchilar, OAV, jamoat tashkilotlari, davlat organlari, fuqarolar va jamoat vakillari tashkil etadi (Bu ma'lumot qayerdan keldi? snoska). License.gov.uz sayti bo'yicha yuqori natijalarni, transport vositasidan foydalanuvchilar egallab turibdi. Elektron hukumat tizimini isloh qilish, ushbu soha ma'sullaridan har bir murojaatga e'tibor bilan bilan yonshoshishni talab etadi. Negaki, axborot texnologiyalari rivojlanayotgan zamindar yashar ekanmiz, albatta bu bizga va soha ma'sullariga bir qancha qator ma'suliyat yuklashi shubhasizydi. Elektron hukumat tizimining jamoatchilik muhokamasiga asoslanganligi esa ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Mamlakatimizda "O'zbekiston-2030" dasturini rivojlantirish va "Raqamli hukumat" tizimini takomillashtirish maqsadida elektron hukumat rivoji "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" o'z faoliyatini olib boradi. boshlagan. Ushbu markazning asosiy maqsadi "O'zbekiston-2030" dasturini rivojlantirish va "Raqamli hukumat" tizimini takomillashtirishdan iborat. Markaz tomonidan 2023-yilda 2000 ta ustuvor davlat loyihalari o'rganib chiqildi, 56% yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xizmatlar ko'rsatildirsatilgan, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy etilgan davlat xizmatlari 606 taga yetdiyotgan. Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida Raqamli hukumatni rivojlantirish va barqarorlashtirish reytingida davlatimiz 69-o'rinni egallab turibdi.

Markaz strategiyasi -raqamli texnologiyalar - insoniyat kelajagi sifatida belgilab qo'yilgan. Markazda faoliyat yurituvchilar, inson va davlat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga hissa qo'shadilar. Ma'lumotlarni raqamlashtirish va elektron hukumat tizimiga bo'lgan yuksak e'tibor, mamlakatning rivojlanish ko'rsatkichlarini oshiradi. Markaz maqsadi- foydalanuvchilarga vaqt, pul va resurslarni tejash imkonini beradigan xizmatlarni elektron shaklda taqdim etish orqali mamlakat aholisining hayotini yanada osonlashtirishga intiladi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, aholi ongida axborotlashgan, zamonaviy hayotga moslashish madaniyatini oshiradi.

**Xulosa.** Xulosa shundan iboratki, ta'kidlash lozim, mamlakatimizda 2020 yil pandemiya davrida elektron hukumat tizimiga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Fuqarolar karantin qoidalariga to'liq amal qilgan holda. Mobil telefonlari orqali ko'plab, davlat xizmatlaridan foydalandilar. Chunki, uydan chiqishning imkoni yo'qligi tufayli, aholi barcha xizmatlardan masofaviy tarzda foydalandi. Ayni shundan so'ng aholi barcha xizmatlarni uydan chiqmasdan turib bajarishga odatlangan edi. Shunday bo'lsada, bugungi kunda aholida elektron hukumatga ishonchsizlik holatlari mavjud. Masalan; Mana shunday fikr "birorta hujjatni olsam unda muhri yo'q, imzosi yo'q hujjatni taqdim qilsam uning haqiqiy ekanligiga kim ishonadi?" kabi savollar elektron hukumat haqida bilimga ega emas fuqarolarni qiynashi tabiiy. Elektron hukumat bo'yicha dolzarb muammolar bisyor. Elektron hukumat tizimidan,

elektron saytlardan foydalanishni bilmaydigan fuqarolar, davlat xizmatlari markaziga murojaat etadilar. Afsuski, davlat xizmatlari markazida ham muammolar yetarlicha.

Ushbu sohadagi muammolar:

Hozirgi kunda my.gov.uz saytida 200dan ortiq o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish mumkinligi, lekin 80% fuqarolar davlat xizmatlari markaziga murojaat qilishi, navbat chiqarib beruvchi apparatning kun ora 2 yoki 3 soat davomida ishlamay qolishi. Natijada ortiqcha vaqt sarflanishi, fuqarolarning noroziliklari, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun tashrif buyurgan fuqarolardan iborat, uzun navbatlarning mavjudligi, bugungi kunda axborotlashgan va har tomonlama zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan elektron hukumatning ortda qolayotganligini va elektron hukumat tizimi haqida fuqarolarda ma’lumot mavjud emasligi va elektron saytlardan foydalana olmaslik holatlari uchrayotganligi ayni haqiqat.

Mana shunday muammolarni bartaraf etish uchun esa fuqarolarimizga davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun sarflanadigan mablag‘larning bir qismi hisobida umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida, professional va oliy ta’lim muassalarida informatika fani negizida, “Davlat xizmatlarini ko‘rsatish ko‘nikmasi” ni shakllantirishga qaratilgan maxsus dars mashg‘ulotlarini joriy qilish, maxsus yuridik bilimga ega bo‘lgan xodimlar va yuridik fakultetlarda tahsil olayotgan iqtidorli talabalar tomonidan “Elektron hukumat tizimini rivojlantirish” bo‘yicha aholi o‘rtasida targ‘ibot aksiyasini o‘tkazish.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha eng ilg‘or bo‘lgan, Gruziya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur davlatlarining jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasini joriy qilish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ilg‘or bo‘lgan saytlarda fuqarolarning yoshi bo‘yicha statistika ham ko‘rsatilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Negaki, saytni o‘rganish natijasida foydalanuvchilarning umumiy soni ko‘rsatilgan bo‘lib, foydalanuvchilar nechchi yoshdan, nechchi yoshgachaligi ko‘rsatilmagan. Agar mana shu taklif atroflicha o‘rganilib saytga kiritilsa, elektron hukumat tizimi fuqarolarning qaysi qatlami uchun xizmat qilayotganligi, masalan: Foydalanuvchilardan, 18-30 yoshgacha bo‘lganlar 55%, 30-50 yoshgacha bo‘lganlar 25%, 50-70 yoshgacha bo‘lganlar 20%ni tashkil etishi statistika orqali ko‘rsatilsa, elektron hukumatdan kim ko‘proq manfaatdorligi, yoshlarmi yoki o‘rta yoshdagilarmi aniqlashtirib olishimizga imkon yaratilgan bo‘lar edi.

Mana shunday samarali amaliyot tufayli kutilayotgan natijaga, yoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini jumladan, davlat xizmatlaridan foydalanish ko‘nikmasi shakllanishiga, markazga murojaat qiladiganlar soni kamayishiga va navbat kutish jarayonini bartaraf etishga, ortiqcha sarf xarajat va turli asabbuzarliklarni oldini olishga, elektron hukumatning rivojlanishiga yanada katta hissa qo‘shadi!

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://egov.uz/news/osiyo-yetakchilari-janubiy-koreya-singapur-yaponiya-va-xitoy-elektron-hukumatni-qanday-rivojlantirmoqda-140>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi 09.12.2015 yildagi O‘RQ-395-son Qonuni.
3. info.egov.uz.